



MA'NAVIY TAHDIDLAR KECHA VA BUGUN

Karimova Saida

Guliston davlat universiteti o`qituvchisi

Annotation: *Ushbu maqolada bugungi mafkuraviy kurajlar jarayonida insonlar qalbi va ongini egallash uchun olib borilayotgan kurashlar, ma'naviy tahdidlar, ularning ildizi, mohiyati, xususiyati haqida, shuningdek, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi yoritilgan.*

Key words: *Manaviy tahdid, mafkuraviy havfsizlik, g`oyaviy tarbiya, mafkuraviy immunitet, sog`lom jamiyat.*

Globalashuv jarayonlarining shiddatli va jadal kechishi asrimiz boshlariga kelib insoniyat oldiga ko`plab muammolarni qo`ymoqda. Mintaqamizda g`arazli maqsadlar bilan siyosiy hokimiyatni egallashga intilib, xalqimiz ongiga nisbatan mafkuraviy tahdid solayotgan kuchlarning ijtimoiy-siyosiy, g`oyaviy-mafkuraviy maqsadlari, barqarorlikni izdan chiqarishga bo`lgan intilishlarini oldini olish va ularga qarshi kurashish oldimizdagi eng muhim vazifadir. Dunyoning mafkuraviy manzarasida ro`y berayotgan o`zgarishlar, turli mafkuralar o`rtasida geosiyosiy kurashlarning keskin tus olganligi mafkuraviy xavfsizlikka izchil va tizimli yondashuvni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Mafkuraviy xavfsizlikka bir qator ichki va tashqi omillar o`z ta'sirini o`tkazib turadi. Bugungi kunda O`zbekistonni mustaqilligini mustahkamlanishi va rivojlanishiga to`sqinlik qilish maqsadida ayrim mafkuraviy markazlarni xalqimiz ongini zaharlashga intilishlari, shuningdek, chegaradosh mamlakatlarda turli beqarorliklarni keltirib chiqarishga urinishlarida mafkuraviy xavfsizlik uchun real tashqi tahdidlar mavjudligini ko`ramiz.

Tobora ma'naviy tahdidlarni kuchayib borayotganligi, uning ildizi, mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq o`rganishni taqazo etadi. Ma'naviy tahdid o`zi nima?

“Ma'naviy tahdid” iborasi ikki so`z birikuvidan iborat: ma'naviy va tahdid. “Ma'naviy” deganda insonning ichki dunyosi, ongi va qalbi nazarda tutiladi.[1] “Tahdid” deganda esa hadik, ya'ni tajovuz qilish, yo`ldan chiqarishga asoslangan xavf-xatarlar majmui tushuniladi.[2]

Bugungi kunda internet vositasida odamlar ijtimoiy ongini noto`g`ri shakllantirishga qaratilgan, milliy o`zligidan yiroqlashtiruvchi, insonda g`ayriinsoniy xarakter-xususiyatlarni paydo bo`lishiga olib keluvchi turli xil axborotlar tarqatilyapti. Ayniqsa yoshlarni ongini zaharlashga, o`zi yashayotgan mamlakatiga va uni rahbariyatiga ishonchsizlik uyg`otishga va shu orqali jamiyatga nafrat, xalqiga bepisand va o`z davlatiga ishonchsiz bo`lgan avlodni shakllantirishga urinishlar kuchaymoqda. Sodda qilib aytganda, global tarmoq mafkuraviy kurashlar maydoniga aylanib bormoqda. Muayyan bir davlatni egallash yoki o`zini yo`rig`iga yurgizish uchun, avvalo, shu hududda istiqomat qiluvchi xalqni mafkuraviy immunitetini sindirish, qalbi va ongida bo`shliq hosil qilish orqali o`zlarining g`arazli manfaatlariga moslashtirilgan g`oya va mafkuralarini tiqishtirishga harakat qilayotgan kuchlar tobora foal harakat qilmoqda.

Aslida, muayyan hudud, mamlakat uchun bo`lgan kurashlarda, ma'naviy tahdidlarni ishga solib, o`sha yerda istiqomat qiluvchi odamlarni aynitishga, ma'naviy dunyosini izdan chiqarib, jamiyatni parokanda qilish orqali davlatni zaiflashtirishga urinishlar, mafkuraviy kurashlar uzoq yillik tarixga ega. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin.

Bu haqda xitoylik faylasuf va harbiy qo`mondon Sun Szi (e.o. VI asrda) shunday degan edi:



- ✓ "Siz raqib mamlakatdagi barcha yaxshi narsalarni buzing, ayniting;
- ✓ Raqib davlatdagi atoqli arboblarni sherik qilib olib, jinoyatga boshlang;
- ✓ Raqib davlat rahbariyatining obro'sini to'king, qulay paytda ularning jamoat oldida sharmandasini chiqaring;
- ✓ Bu ishda o'sha mamlakatdagi eng past, maraz odamlar bilan sheriklik qiling;
- ✓ Raqib mamlakat odamlari orasida kelishmovchilik, janjal chiqaring;
- ✓ Yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang;
- ✓ Hukumatni yaxshi ish yuritishiga har qanday yo'l bilan qarshilik ko'rsating;
- ✓ Raqib qo'shinlarining ta'minoti, tartibiga to'siqlar qo'ying, buzing;
- ✓ Askarlarini qo'shiq va kuyga oshifta qilib, irodasiz qiling;
- ✓ Dushmaningizning an'analarini qadrsizlantiring, xudolariga ishonchini sindiring;
- ✓ Buzuq ayollarni yuborib, ularni yanada kuchliroq ayniting,
- ✓ Raqib tomon haqida ma'lumot olishga, bu ishda ular orasidan sheriklar topishga, ularga pul to'lashda juda saxiy bo'ling;
- ✓ Umuman pulni ham, va'dalarni ham ayamang, chunki ular ajoyib natijalarni beradi".[3]

AQSH Markaziy harbiy razvedka boshqarmasi rahbari A. Dalles 1945 yilda Rossiyaning yo'q qilish borasida quyidagi chor-tadbirlar majmuini taklif qilgan edi: «Urushdan so'ng, biz bor iqtisodiy qudratimizni rus xalqining tubanlashishi uchun safarbar etamiz. U yerda kaosni vujudga keltirib, ularning qadriyatlarini soxta qadriyatlarga almashtiramiz va ularga e'tiqod qilishga majburlaymiz. Bularni amalga oshirish uchun Rossiyaning o'zida hamfikrlarimizni, ittifoqchi va yordamchilarimizni topamiz... Adabiyot va san'atning ijtimoiy ahamiyatini yo'qotamiz. Inson ongiga shahvat, zo'rovonlik, shafqatsizlik, sotqinlik, xullas axloqsizlikning barcha turlarini singdiradigan ijodkorlarni har qanday vositalar bilan qo'llab-quvvatlaymiz... Biz sezdirmasdan, faol va muntazam ravishda amaldorlarning boshboshdoqligiga ko'mak beramiz. Haqqoniylik va axloq - eskilik sarqitiga aylanadi. Behayollik va yuzsizlik, yolg'on va aldov, ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yish, bir-biridan hayvonlarcha qo'rquv hislari, millatchilik va xalqlar dushmanligi – bularning barchasini sekin-asta xalq orasiga singdirib boramiz. Shu tariqa odamlarning ma'naviyatini harob etamiz va har doim asosiy urg'uni yoshlarga beramiz...»[4].

General Mixail Skobelev "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, tilini, san'atini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi" deb aytgan edi.

Xullas, bu kabi misollar juda ko'p. Hozirgi kunda globallashuv jarayonining kuchayishi, inson aqliy tafakkurining maxsuli bo'lmish internetning paydo bo'lishi va takomillashishi bu jarayonlarni yanada avj olib ketishiga sabab bo'ldi. Ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar qadim tarixda ham bo'lgan, bugun ham ertaga ham mavjud bo'ladi. Nishoni ham o'sha-o'sha odamlarning qalbi va ongi. Faqatgina, xususiyati, kurash va zabt etish usullarini biroz o'zgartirgan. Zamonaviy texnik vositalar, internet kabi axborot tashuvchilar esa uni qadamini tezlashtirib, qamrovini kengaytirib yubordi. Shu jixati bilan u yanada xavfli tus oldi. Shuning uchun ham uni tarixiy ildizi, tusi, xususiyatini shuqurroq o'rganish, unga qarshu samaraliy himoya choralarini ishlab chiqish lozim.

Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish, mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali yo'li - bu xalqimizni axloqiy va ma'naviy salohiyatini oshirish, jamiyatimizning birdamligini ta'minlash, g'oyaviy tarbiyani kuchaytirib, mafkuraviy immunitetni shakllantirishdir.



Adabiyotlar.

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 3-jild. – T.: Fan, 2008. – B. 91.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 4-jild. – T.: Fan, 2008. – B. 201.
3. Milliy istiqloq g‘oyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. – T.: Akademiya, 2005. – B. 50-51.
4. <http://www.polit.ru>
5. To‘rayev Sh. Ma‘naviy tahdid: falsafiy talqin. – T.: “Muharrir”. 2010.
6. Каримова, С. (2021). Мафкуравий хавфсизликни та‘минлашнинг таркибий функционал тahlili. *Общество и инновации*, 2(11/S), 273-279.
7. Saida, K. (2020). Features of manifestation of ideological threats in the process of globalization. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1428-1433.